

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING
BASHARIYAT MA‘NAVIY–MA‘RIFIY
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI



**5-noyabr 2021-yil
Navoiy, O‘zbekiston**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFRENSIYANING TASHKILIY QO'MITASI

Rais:

B.Sobirov Navoiy davlat pedagogika instituti rektori,
texnika fanlari doktori, professor

A'zolar:

D.Ro'ziyev Navoiy davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektor
T.O'tapov Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor v.v.b.
X.Qurbonov Navoiy davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor
S.Xudoyberdiyev Navoiy davlat pedagogika instituti moliya va iqtisodiy ishlar bo'yicha
prorektor v.v.b.
A.Xolmurodov Navoiy davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori
N.Murodova Navoiy davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori
A.Allaberdiyev Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani,
dotsent
R.Yusubova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri,
dotsent
Z.Quvonov Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri
T.Xo'jayev Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini
dotsenti
B.Zaripov Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti
N.Yarashova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini katta
o'qituvchisi, f.f.f.d.
N.Sharipova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini katta
o'qituvchisi, f.f.f.d.

TAHRIR HAY'ATI

R.Yusubova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini
mudiri, dotsent
N.Yarashova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini
katta o'qituvchisi, f.f.f.d.
N.Sharipova Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini
katta o'qituvchisi, f.f.f.d.

TAQRIZCHILAR

T.Xo'jayev Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasini dotsenti
B.Zaripov Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasini
dotsenti

Yordin góyo meni qatl aylamak tahdididur.

Meaning: Love tells the story of the murder of Farhod Majnun, as if my love seems to be threatening to kill me. According to the lover, the statement about the murder of Farhod and Majnun in the way of love is in fact a threat to kill the lover.

A. Husseini said about talmih: "I know that some of the talmih's are like a gesture as it doesn't have a denotative dictionary meaning but it delivers some connotative expressions". That is, the poet does not reveal his original purpose in the talmih and quotes famous names to understand it, while the reader realizes the original purpose based on the similarities between these names and the ideas expressed in the verse, for example, the following example fully confirms this idea:

(Original version):

*Tog' u vodi y ichra andog' sa'b holim borkim,
Ko'rsa gar Fargod, agar Majnunki yuz hayrat qilur.*

Meaning: I am in such a condition in the mountains and valleys, if Farhod or Majnun sees they get astonished.

The words mountain (tog') and valley (vodi y) used in the first verse can be counted as reference words, because while Farhad dug a mountain, Majnun wandered in the valleys, which is why the words in the next verse required the use of these famous names. Usually, the gesture resembles the answer to a riddle, a riddle of the famous name that gave rise to the art of talmih. This lines also contain references:

(Original version):

*Meni gah dashtu gah tog' uzra ko'rgan
Tirilmish, sog'inur Majnunu Farxod.*

Meaning: If they saw me sometimes in the desert and sometimes on the mountain resurrected Majnun and Farhod would miss.

In conclusion, the creation of the art of talmeh in the poems of Alisher Navoi under the names of Farhod and Majnun provided an opportunity to exaggerate and intensify the state of love (lyrical hero) and ensure the stability of the artistic image.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI SOMATIZMLAR LINGVOPOETIKASI

Botir ZARIPOV,
NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotation: The article discusses the names of some body parts found in the language of Navoi's works, their linguopoetic features.

Keywords: somatism, hands, head, feet, nose, ears, tongue, lips, eyes, eyebrows; contradiction, linguopoetics

Аннотация: В статье рассматриваются названия некоторых частей тела, встречающиеся на языке произведений Навои, их лингвопоэтические особенности.

Ключевые слова: соматизм, руки, голова, ноги, нос, уши, язык, губы, глаза, брови; противоречие, лингвопоэтика.

Alisher Navoiy asarlarida qaydlangan leksemalar bir necha mavzu guruhlarida asosida o'rganilgan. Jumladan, o'simlik, hayvonot dunyosiga oid so'zlar, uy-ro'zg'or va xo'jalikka doir, kiyim-kechak, ovqat va suyuqlik nomlari, hajm, o'lchov sathiga aloqador nomlar, idish-tovoq nomlarining etimoni, ularning semantik xususiyatlari haqida tadqiqotlar qilingan¹. Navoiy asarlarida shu mavzu guruhlar qatorida yana bir so'zlar guruhini, aniqrog'i, kishi tana a'zolari nomlari - (somatizm)ni ham har tomonlama tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Shoir o'z falsafiy qarashlarini mazkur leksemalar vositasida ifodalab bergan.

Ko'r sanga haqdin ne karamlar durur,

Ne qadar ehsonu niamlar durur.

Buki seni xoliqi kavnu fasod,

Qilmadi hayvonu nabotu jamod.

Lutf bila ayladi inson seni,

Din yo'lida qildi musulmon seni.

Berdi ko'rar ko'zu eshitur qulog',

Aytur til, atrni anglar dimog'.

Andoq ilik dog'iki, tutg'ay taom.

*Andoq ayoq dog'iki, qilg'ay xirom.*²

Ma'nosi: butun borliqni, pastu balandni yaratgan Tangri seni hayvon yo o'simlik, yoki jonsiz bir narsa qilib emas, u lutf ko'rsatib, seni inson qilib yaratdi; din yo'lida musulmon qilib yaratdi. Senga u ko'rish uchun ko'z, eshitish uchun quloq, gapirish uchun til, hidlash uchun dimog' berdi. (Bu o'rinda dimog' so'zi burun ma'nosida tushuniladi.) Ovqatni ushlashing uchun qo'l, yurishing uchun oyoq ham berdi. Shoir tangri odamni hayvon yo o'simlik, yoki jonsiz bir narsa qilib emas, u lutf ko'rsatib inson qilib yaratganini unga ko'z, quloq, burun, til, qo'l, oyoq kabilarning ato etilgani va bularning olamni bilish va idrok etishidagi ahamiyatini teran ifoda etgan.

Shoir asarlari leksikasida tana a'zolari nomlari faol qo'llangan. Bu sathdagi leksemalar o'z va ko'chma ma'nolarida ishlatilib, fikrni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan shoir asarida "bosh" so'zi o'z ma'nosi bilan birga metonimik, metaforik, sinekdoxa usullari orqali ko'chma ma'noda kelib, boshqa bir semantik maydonni hosil qilishga ishtirok etgan.

Deb emishsen bog'lag'um boshim kesib fitrokima,

To tirikmen jon fido aylab, rikobingg'a o'lay.

Bunda "bosh" leksemasi o'z ma'nosida kelgan bo'lsa,

Oqara boshladi boshu, to'kula boshladi tish,

Safar yarog'ini qilg'ilki, tushti boshingga ish-

Misrasining birinchi qatorida "bosh" so'zi soch ma'nosini ifodalab kelmoqda.

Yoki:

¹ B.Bafoyev – Ko'hna so'zlar tarixi. T. Fan nashriyoti 1991.

² Alisher Navoiy. Hayratul abror. "FAN". T. 1991. 270-b.

*Ko'z yoshim bo'ldi ravon bir nargisi jodu ko'rub,
Tifl yanglig'kim yuguray har taraf o'hu ko'rub (G'.S. 78)*

Bunda ko'z somatizmi baytlarni shakllantirishda faol ishtirok etgan.

Ammo nutq vaziyatiga ko'ra shoir tomonidan leksemalarning zidlanish hodisalariga, shuningdek me'yor talabiga mos ifodalanishi masalalarini mukammal yoritish ham maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, shoirning so'z qo'llash talabi bilan ba'zi somatik so'zlar fikrga zid holda qo'llanishini ham kuzatish mumkin. Bunday hollarda adib ko'zlagan maqsad yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda tilshunoslikdagi enantiosemiya hodisasi haqida ham fikr yuritish o'rinlidir.

Enantiosemiya – bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit talabiga ko'ra zidlanishning ifodalanishidir¹. Chunonchi “ofat” so'zining ma'nosi – ranj, alam, jirkanishdir.² Navoiy asarlarida bu leksemaning ma'nosi salbiy bo'lsa-da, nutq vaziyatiga qarab somatizmlar bilan ijobiy ma'noda qo'llanganligining guvohi bo'ldik.

*Labining har so'zi yuz jong'a ofat,
Sochi har tori ming iymong'a ofat (F.SH -452)*

Ma'shuqaga ijobiy ta'rif, tavsif berayotgan shoir nega ofat so'zini qo'lladi? *Yuz jong'a, ming iymong'a* nisbatan ofat keltirish emas, balki ma'shuqani chiroyni, go'zalligini, ajoyib lutf egasi ekanligini ta'riflash uchun nutq talabiga ko'ra fikriga zid so'z qo'llagan. Enantiosemiya so'zning semantik maydoni bilan bog'liq hodisa. Chunki leksik birliklardagi qarama-qarshi qo'yilayotgan so'zlar semik jihatdan qarshilantiriladi. Shu orqali shoirning ichki his-tuyg'ulari yorqin ifodalanadi. Shuningdek:

*Ko'zi qotil, qoshi ofat, og'zining nutqi fusun,
Istaram, lekin jahonda yo'qturur, bundoq sanam. (F.K-50)*

Qotil – o'ldiruvchi, qatl etuvchi, halokatli (O'TIL. V. 159-bet). Jahonga tengi yo'q, ajoyib, sehrli nutq egasi bo'lgan sanamga nisbatan, nega qotil, ofat so'zlari ishlatildi. Albatta, nutq talabi, vaziyat, me'yor hisobga olinganligini alohida qayd etishimiz lozim.

Alisher Navoiy asarlarida omonim so'zlar, ulardan tashkil topgan omonimik qatorlar ham katta sonni tashkil etadi. Shularning orasida ham tana a'zolari uchraydi. Masalan “ilik” so'zi qo'l, suyak ichidagi yog'simon modda, darvoza va eshikning zanjir solib yoki qulflab bekitilishidir.

Bir o'g'il berdikim, bir ko'z va bir ilik va bir oyog'i yo'q erdi (T.A.299-bet)

Tana a'zolaridan yana biri **bel** leksemasidir. Bu so'z ham omonimik xususiyatga ega. Ish quroli ma'nosida ham kelgan.

*Beling garchi kamar topmay kamohi,
Vale zarrin kamarlardur sipohi (F.SH 443-bet)*

Burun so'zi ham vatq ma'nosi bilan birga tana a'zosi nomi sifatida shoir asarlarida ifodalangan:

*Aylagandek mardumi obi **burun**, ko'z mardumin,*

¹ H.Jamolxonov – Hozirgi o'zbek adabiy tili . T. Talqin nashriyoti . 2005. 172-bet

² O'TIL. III. T.2007. 159-bet.

Emdi ul naf'i aylamish xayli bani odamni suv (G'S-529)

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy asarlarida barcha leksemalar qatori tana a'zolarini ifodalovchi so'zlar faol ishtirok etgan. Biz faqatgina ba'zi so'zlarni tahlilga tortdik, xolos. Bu xildagi so'zlarni geneologik jihatdan arabcha, forsha, o'zbekcha variantlari ham shoir asarlarida uchraydi. *Mengiz-chehra-oraz-andom-ruxsor-tal'at; chashm-diyda-ayn-basar-bosira; kiprik-mujgon; soch-mo'; barmoq-panja; kalla-ra'su-torak; qo'l-dast-yad; so'ngak –ustixon; til-zabon-lison; bo'yin-gardan; dudoq; qorin-ishkamba; miyon* kabi tana a'zolari nomlarini har tomonlama lingvistik jihatdan tahlilga tortish kelgusi vazifalardan biri sanaladi.

Xullas, Alisher Navoiyning asarlarida qo'llanilgan tana a'zolarining nomlari, ularning ma'no turlanishlari, serqirraligi shoirga bir badiiy kontekst doirasida bir nechta poetik imkoniyatlarni vujudga keltirishga imkon bergan. Ijodkor badiiy obraz uchun asos qilib olgan bu xildagi nomlardan unumli foydalanib, mukammal asar namunalarini yaratgan.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

*Ra'no NURITDINOVA,
filologiya fanlari nomzodi
NavDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasida
(O'zbekiston)*

Annotatsiya: *Navoiy asarlari tilida iste'molda bo'lgan antroponimlar bilan bog'liq atamalar tahlil qilindi. Maqola eski o'zbek adabiy tili sathlarida yuz bergan o'zgarishlar, umumxalq o'zbek tili leksikasi tarkib topishi haqidagi nazariy qarashlarni kengaytiradi va boyitadi.*

Kalit so'zlar: *og'ullug', ataliq//atalig', xatun kishi.*

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy til ravnaqi uchun, o'zbek adabiyotining shakllanishi hamda rivojlanishi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan nafaqat o'z zamondoshlariga, balki undan keyingi butun avlodga o'rnak ko'rsatadi.

O'rta Osiyoda turkiyda bitilgan adabiyotning rivojlanishi XI-XV asrlarga to'g'ri keladi. Ulug' shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy asos solgan eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi ham ayni ushbu davr bilan uzviy bog'liq¹.

O'rta Osiyo tillari (dialektlari) negizida tarkib topgan, sharqiy turkiy, ba'zi qipchoq hamda o'g'uz-turkman tillari ta'siriga ega bo'lgan ushbu yangi tilda Durbek, Otoi, Sakkokiy, Lutfiy, Amiriy, Gadoiy, Sayyid Ahmad, Xo'jandiy,

¹ Fozilov E. O'zbek adabiy tilining shakllanish tarixi haqida // O'zbek tili tarixi masalalari. -Toshkent: Fan, 1977. –B.3.

39.	S.Farmanov “Mahbub ul-qulub” asarida insoniylikning ezgu amallari xususida	146
40.	U.Rahmonova “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi ba’zi hajviy baytlar tahlili	148
41.	S.Omonova “Boburnoma”da Navoiy haqida	151
42.	F.Jo‘rayeva Alisher Navoiy adabiy merosining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	153
43.	N.Abdullayeva So‘z ummoni	155
44.	M.Nematova Alisher Navoiy – so‘z sohibqironi	158
45.	Н.Амонова «Сокровищница мыслей» Алишера Навои	160
46.	M.Murtazaeva, N.Xalilova Navoiy asarlarida axloqiy-ta’limiy g‘oyalar talqini	164
47.	Г.Истамова “Насойим ул-муҳаббат”да орифа аёлларнинг ишқ ҳақида қарашлари	168
48.	D.Suyunova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Alisher Navoiy ijodiy merosi haqida tushunchalar berish orqali ijodiy fikrlashga yo‘naltirish	172
49.	D.Nabiyeva Navoiy asarlarida yoshlar ma’naviyati	175
50.	F.Mamarasulova Faxriyor ijodida Navoiy badiiyatining aks etishi	178
51.	G.Nurullayeva Badiiy asarlarda Navoiy timsoli	179
52.	F.Namozova Alisher Navoiyning “Ashraquat min...” g‘azalining tasavvufiy talqini	181
IKKINCHI SHO‘BA: NAVOIY IJODI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI		
53.	N.Murodova Alisher Navoiy – O‘zbek tili ilmiy grammatikasining asoschisi	184
54.	Д.Лутфуллаева, Г.Эрназарова Алишер Навоий асарларида минералогия терминлари синонимияси	188
55.	Н.Умарова Навоий асарларида қўлланган кийим номларининг семантик таснифи	191
56.	R.Yusubova Creation of talmih (poetic technique of using the names of famous heroes in poems) the art on the basis of images of Farhod and Majnun	195
57.	B.Zaripov Alisher Navoiy asarlaridagi somatizmlar lingvopoetikasi	197